

**NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDA MAQOL VA MATALLARNING  
LINGVOKULTUROLOGIK TALQINI**

*M. G'ayratova<sup>1</sup>*

*Annotatsiya:*

Ushbu maqolada nemis va o'zbek tillaridagi maqollarning ma'nodoshi hamda bir biriga o'xshash tomonlari berib borilgan. Nemis tilidagi maqollar bir biriga solishtirib o'zaro ekvivalenti va so'zma so'z tarjimalari bilan keltirilgan.

*Kalit so'zlar:* maqol, matal, naql, nemis o'zbek, yaxshilik, ma'no, mamlakat, bilim, donolik, inson, jamiyat, asr.

*doi:* <https://doi.org/10.2024/p3gewp92>

---

---

**Kirish**

O'zbek xalqi qadimdan o'z fikrlarini maqol va matallar bilan boyitib keng ko'lamda gapirib, uni tinglovchisiga tezroq va aniqroq qilib yetkazib berib kelgan dono xalq hisoblanadi. Albatta, gapirayotgan gapimiz bo'yoqdor va mazmunan aniq va ravon bo'lishi uchun maqol va matallar muhim rol o'ynaydi. Shu sababdan o'zbek xalq maqollari qadimiydir, u necha ming asrlardan beri sayqallanib, yangilanib zamon va makonga moslashib kelmoqda. Asosan yaxshilikka yo'naltirilgan maqollarimiz o'zbek xalqining qanchalik mehrli va oqko'ngil ekanligini ko'rsatadi. Nafaqat o'zbek tilida balki boshqa til boshqa millat va elatlarning madaniyatiga nazar solar ekanmiz biz u yerda ham yaxshilikka, ezgulikka, mehnatsevarlikka bag'ishlangan maqollarni juda ko'plab uchratamiz Demak har bir millat va elatning o'ziga xos urf odatlari ularning kelib chiqishi, dunyoqarashi, fikrlash doirasi va diniy jixatdan kelib chiqishiga qarab maqol va matallar shaklanib borar ekan. Bu o'z navbatida xar bir xalqning o'zaro bir biriga xoslik jixatdan yondashuvi natijasida sodir bo'ladi. Misol tariqasida biz nemis madaniyatiga nazar solar ekanmiz biz qaysi yurtda yoki millatda yashamaylik insoniyatning madaniyati yoki fikrlashi dunyoqarashi qaysidir jabxada o'zaro bir biriga yaqiligini ko'ramiz. Nemis maqollarida ham bir biriga yaxshilik, mehnatsevarlik, adolatli yashash va erksevarlik haqida ko'plab maqollarni uchratamiz. Bunday maqollar albatta o'z o'rnida har bir xalqning bunday naqlarga extiyoji borligini anglatadi. Biz bugun ushbu maqolada nemis va o'zbek maqollarining o'zaro qay taraflama yaqinligi, ularning o'zbek tilidagi ma'nolari va so'zma so'z tarjimalari haqida bir qancha ma'lumotlar to'pladik quyida nemis va o'zbekcha maqollarning bir biriga mosligi va so'zma so'z tarjimalarini keltirdik. Nemischa maqollarning o'zbekcha so'zma so'z tarjimalari bilan quyida tanishamiz.

1. Wer allein schläft, bleibt lange kalt, Zwei wärmen sich einander bald - Yolg'iz uxlagan odam uzoq vaqt sovuqda qoladi, ikkita muzlagan o'zaro bir birini isitadi - bu maqolda birdamlik tushunchasi ilgari surilgan. (Ikki yorti bir butun)

Die Alten zum Rat, Die Jungen zur Tat - Katta inson maslahatga, yoshlar esa xizmatga kelishadi - bu yerda esa kattalarga xurmat, Ich frage nach Äpfeln

---

<sup>1</sup> G'ayratova Malika Ilxom qizi, Nemis tili o'qituvchisi

und du antwortest mir von Birnen - Men sendan Olmalar haqida so'radim, sen esa menga olchalar haqida javob beryapsan - Bu yerda men tog'dan gapirsam, sen bog'dan kelyapsan ma'nosida, Kein Fisch ohne Gräte, kein Mensch ohne Mängel - Baliq qiltiqsiz odam aybsiz bo'lamas - xato kamchililar haqida, Keine Antwort ist auch eine Antwort - Javob bermaslik ham bir javob - donolik haqida, 6. Der Apfel fällt nicht weit vom Stamm - Olma daraxtdan uzoqqa tushmas, Ein fauler Apfel steckt hundert an - Bir qurtlagan olma yuzlab olmalarni chitar, Schöne Apfel sind auch wohl sauer - Chiroyli olmalar ham nordon bo'lar, mevalar orqali ma'noni yetkazish haqida, Arbeit hat bittere Wurzel, Aber süße Frucht - Mehnatning ildizi achchiq mevasi shirin - mehnatsevarlik haqida, Was man ferne halt, ist süß - Agar boshqa joydan kelgan bo'lsa shirin tuyulaveradi, Niemand sieht seine eigenen Fehler - Hech kim o'z aybini ko'rmaydi - kinoya orqali yetkazish haqida, Argwohn isst mit dem Teufel aus einer Schlüssel - Gumon iymondan ayirar - diniy jixatdan, Arm oder Reich, Der Tod macht alles gleich - Ajal hammaga barobar, Gut Exempel, halbe Predigt - Yaxshi niyat yarim davlat, Aufschieb ist ein Tagedieb - Cho'zish, kechiktirish kunlarni o'g'irlyaydi, Aug um Auge, Zahn um Zahn - Ko'zga ko'z, tishga tish, Was die Augen sehen, Glaubt das Herz - Ko'zlar nimani ko'rsa, yurak shunga ishonar, Die Augen glauben sich selbst, die Ohren anderen Leuten - Ko'z ko'rganiga ishonar, quloq boshqa odamlardan eshitganiga ishonar, Aus den Augen, aus dem Sinn - Ko'zdan yiroq ko'ngildan yiroq ma'nosida, Wer aus gibt, muss auch einnehmen - Kim bersa, olishi ham kerak, Man sieht den Splitter im fremden Auge, im eignen den Balken nicht - Hech kim o'z aybini ko'rolmas, Ein gut gespielter Ball findet immer sein Loch - Yaxshi o'ynaydigan To'p har doim o'z teshigini topadi, Es ist keine Eule, die nicht schwüre, sie hätte die schönsten Jungen - Hech bir boyqush yo'qki, o'zining eng go'zal bolasi bor deb qasam ichmaydi, So geht es in der Welt, Der eine hat den Beutel, der andere hat das Geld - Dunyoda shunday bo'ladi, birining sumkasi bor, birining puli bor, Schöne Blumen stehn nicht lang am Wege - Go'zal Gullar uzoq vaqt ko'chada qolmas singari hamda yana shunga o'xshash boshqa maqollar tarjimalari orqali keladi. Endi bu so'zma so'z tarjimalardagi maqollarning o'zaro bir biriga ma'no jihatdan mos keladigan tuzilishlarini quyida ko'rishimiz mumkin.

1. Wer allein schläft, bleibt lange kalt,  
Zwei wärmen sich einander bald - Ikki yorti bir butun.
2. Die Alten zum Rat,  
Die Jungen zur Tat - Qari kelsa oshga, yosh kelsa ishga.
3. Ich frage nach Äpfeln und du antwortest mir von Birnen - Men senga to'g'dan gapirsam sen menga bog'dan gapiryapsan.
4. Kein Fisch ohne Gräte, kein Mensch ohne Mängel - Har to'kisda bir ayb, Beayb parvardigor.
5. Keine Antwort ist auch eine Antwort - Sukut alomati Rizo.
6. Der Apfel fällt nicht weit vom Stamm - Olma tagiga olma tushadi.
7. Ein fauler Apfel steckt hundert an - bir chichqoq tana butun podani bulg'aydi.
8. Schöne Apfel sind auch wohl sauer - usti yaltiroq ichi qaltiroq.
9. Arbeit hat bittere Wurzel,  
Aber süße Frucht - Mehnat, Mehnatning tagi rohat.
10. Was man ferne halt, ist süß - xo'rozqand chet elniki bo'lsa yotib olib yalashadi.
11. Niemand sieht seine eigenen Fehler - Hech kim o'z aybini ko'rmaydi.

12. Argwohn isst mit dem Teufel aus einer Schlüssel - Gumon iymondan ayirar
13. Arm oder Reich,  
Der Tod macht alles gleich - Ajal hammaga barobar.
14. Gut Exempel, halbe Predigt - Yaxshi niyat yarim davlat.
15. Art lässt nicht von Art - Qarg'a qarg'ani ko'zini cho'qimaydi.
16. Aufschieb ist ein Tagedieb - Bugungi ishni ertaga qo'yma, Qolgan ishga qor yog'ar.
17. Aug um Auge, Zahn um Zahn - Qonga qon jonga jon bilan.
18. Was die Augen sehen,  
Glaubt das Herz - Ko'z ko'rganiga ishonar.
19. Die Augen glauben sich selbst, die Ohren anderen Leuten - Ko'z ko'rganiga, quloq eshitganiga ishonar.
20. Aus den Augen, aus dem Sinn - Ko'zdan yiroq ko'ngildan yiroq.
21. Wer aus gibt, muss auch einnehmen - yemoqni qusmog'i bor.
22. Man sieht den Splitter im fremden Auge, im eignen den Balken nicht - Hech kim o'z aybini ko'rolmas.
23. Ein gut gespielter Ball findet immer sein Loch - Teshik kozmunchoq yerda qolmas.
24. Es ist keine Eule, die nicht schwüre, sie hätte die schönsten Jungen - Qoraqo'ng'iz bolasini oppog'im derkan.
25. So geht es in der Welt,  
Der eine hat den Beutel, der andere hat das Geld - Besh qo'l barobar emas.
26. Schöne Blumen stehn nicht lang am Wege - Yaxshi qiz ko'chada qolmas.
27. Wenn alle in den Brunnen Springen, würdest du nach springen - Kimdir o'zini tomdan tashlasa sen ham tashlaysanmi?.
28. Jedes Ding hat zwei Seiten - Tanganing ikki tomoni bor.
29. All Ding ist nur Weile Schön - Har narsaning o'z vaqti bor.
30. Ein Esel bleibt ein Esel, käm er auch nach Rom - It bilan eshshakni qancha qilma tarbiya it bo'lur eshshak bo'lur, aslo bo'lmas odamiy.
31. Dreitätiger Gast ist eine Last - Mehmonning xurmati uch kun.
32. Ehestand ist kein Geschleck - Nikoh muqaddas.
33. Wohl anfangen ist gut, wohl enden ist besser - Kambag'al bo'lib tug'ilish bu aybmas kambag'al bo'lib o'lish bu ayb.
34. Ehrlich währt am längsten, schuftig lebt in Ängsten - Yolg'on qirq yilda ham oshkor bo'lar.
35. Besser heut ein Ei als morgen ein Küchlein - Ertagacha xudo poshsho.
36. Blinder Eifer schadet nur - Yetti o'lchab bir kes. Avval o'yla keyin so'yla.
37. Am Ende weiß man, wie viel es geschlagen hat - Jo'jani kuzda sanaymiz.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak har bir xalqning o'z asriy rivojlanish davriga oid minglab maqollar va matallar yaratilgan. Bulardan to hozirga qadar eng yaxshilari sayqallanib zamon va makonga moslashib kelmoqda. Shunday ekan qaysi millat yo elat bo'lmasin yaratilayotgan maqollari boshqa boshqa tilda bo'lsa ham ma'no va mazmun jihatdan bir biriga mos ekanligini yuqorida ko'rib o'tdik. Bunday maqollarini biz faqatgina mingdan birini keltirdik xolos. Qanaqa mavzuda bo'lmasin asl tub ma'nosi yaqin kelgan bunday naqlar hali minglab taqosslanadi, minglab yoritiladi.

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

- [1]. Абдуллаев, Н. (2020). *Узбекские пословицы и поговорки: История и современность*. Ташкент: Фан ва технология.
- [2]. Гримм, Я., & Гримм, В. (2018). *Немецкие пословицы и поговорки*. Берлин: De Gruyter.
- [3]. Замонов, У.Х. (2021). *Сравнительный анализ пословиц и поговорок в узбекской и немецкой культурах*. Самарканд: Университетская печать.
- [4]. Каримов, И. (2019). *Язык и культура: Анализ узбекских народных пословиц*. Наманган: Валеат.
- [5]. Мюллер, Г. (2022). *Культурные перекрестки: Немецкие и узбекские пословицы в контексте*. Мюнхен: Ludwig Maximilian University Press.
- [6]. Назаров, А.Д. (2018). *Фольклор и идентичность: Пословицы как зеркало общества*. Бухара: Наука и жизнь.
- [7]. Фишер, Т. (2023). *Лингвистические мосты: Перевод и адаптация пословиц между языками*. Гамбург: Академический.